

# O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan "O'zkimyosanoat" Ajda tadbir bo`lib o`tdi

// 07.12.2022

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/uzbekiston-respublikasi-konstitutsiyasi-qabul-qilinganligining-30-yili-munosabati-bilan-tadbir-bolib-otdi>



Bugun "O'zkimyosanoat" Ajda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan tadbir o`tkazildi. Unda mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, ma`naviy salohiyati yuksalishiga o`zining samarali mehnati orqali munosib hissa qo'shayotgan "O'zkimyosanoat" Ajning 6 nafar xodimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan ta'sis etilgan "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Ular:

**Raximov Jamoliddin Kamoliddinovich - Korporativ munosabatlar boshqarma boshlig'i.**

**Mamutov Paraxatdin Shamshetdinovich- Tashqi iqtisodiy aloqalarни rivojlantirish, import xaridlarini optimallashtirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv bo`limi boshlig'i.**

**Saidov Sanjar Anvarovich - Iqtisodiyot va biznesni rivojlantirish departamenti bosh**

iqtisodchisi.

**Karimov Shoxrux Shavkatovich - G'aznachilik operatsiyalari va ichki xaridlar bo'limi bosh mutaxassisini.**

**Gulyamov Abdusamat Abdusattorovich - Ma'muriy xo'jalik boshqarmasi yengil avtomobil haydovchisi.**

**Namozov Farid Ozodovich - Moliya, g'aznachilik operatsiyalari va xaridlar departamenti bosh mutaxassisini.**

Shu bilan birga, taqdirlash marosimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yorqin ifodasi sifatida demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining erkin va faravon turmushini ta'minlash, mamlakatimizning xalqaro maydonidagi nufuzini yuksaltirish, shuningdek, boshqa sohalardagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mustahkam poydevor vazifasi bo'lib xizmat qilayotganini, qonun ustuvorligi va uning amaldagi ijrosini ta'minlash shu diyorda yashayotgan har bir fuqaroning ham insoniy, ham huquqiy burch sanalishi ta'kidlab o'tildi.



uzkmyosanoat



uzkmyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26





uzkmyosanoat



uzkmyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



uzkmyosanoat



uzkmyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



  uzkemyosanoat

  uzkemyosanoat.uz


 (+99878) 140-74-26



uzkemyosanoat

uzkemyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26



## **“O`zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**